ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELİ	1020
Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1025
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	1031
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES	1036
Ataxanov Umidbek Olimovich	



AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IIY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI	1042
Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI	1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna	
УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР	1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li	
BARQAROR IQTISODIIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	1062
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ»	1067
Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович	
DAVLATNING IQTISODIIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	1071
Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI	1075
Quralov Nurxissa Iles o'g'li	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEKANIZMI.....	1082
Haydarov Jasur Baxodir o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI	1087
Mamatov Xabibulla Mamatovich	
O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHIIYATI	1091
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
ASOSIIY KAPITALGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIIYALASHTIRISH MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	1095
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1103
Daminova Madinaxon Bahromjon qizi	
TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA ZAMONAVIIY TENDENSIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1110
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
O'ZBEKISTONDA OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIIY AHAMIIYATI	1117
Muxammedova Zarina Murodovna	
SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI	1121
Sultonov Xudoyshekur G'ayratovich	
IQTISODIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	1126
Xaydarov Ravshan Xikmatullaevich	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1131
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИК СТРАН ПЕРЕХОДНОГО ТИПА	1135
Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович	
"YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O'RNI	1140
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
Mu Zhendi	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
Z.T. Bakayev	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
Аблаева Валентина Борисовна	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI.....	1169
Saparov Murod Irgashovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL.....	1173
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI".....	1177
Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1183
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA AHOLI MIGRATSIYASI TAHLILI (2010-2024 YILLAR).....	1188
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	1192
Аман Тургунович Кенжабаев, Бахтияр Бадриддинович Садриддинов	
SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIY FAOLIYATNI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1200
Zuxurova Nargiza Abdusattarovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IPOTEKANI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI.....	1204
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI.....	1221
Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA EKOLOGIK HOLAT YOMONLASHUVINING TASHQI INVESTITSİYALARGA TA'SIRI.....	1228
Poyonov Jamshid	
RAQAMLI TURIZM PLATFORMALARIDA KONTENT TAHLILI HAMDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI.....	1232
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI.....	1240
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIRKULAR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1246
Utegenov Ilham Baxtiyrovich	
GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA).....	1250
Otabekov Javdod Nurulla o'g'li	



O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1256
Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF THE DEVELOPMENT OF SEPARATE SEGMENTS	1261
OF REGIONAL BUSINESS TOURISM	
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI	1267
Tabayev Azamat Zaripbayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	1272
Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna	
EKOLOGIK SOLIQLARNI HISOBLASH VA UNDARISH METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH	1276
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA IJTIMOIIY AHAMIYATI	1281
Fayziyeva Iroda Shuhrat qizi	



IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI

Fayziyeva Iroda Shuhrat qizi

TDIU Kechki ta'lim va magistratura fakulteti
Iqtisodiyot yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyotda zamonaviy texnologik sanoat zonalari tashkil etishning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi texnologik sanoat zonalarining iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, bandlikni oshirish hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirishdagi rolini aniqlashdan iborat. Maqolada rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida texnoparklar va sanoat zonalarining samaradorligi o'rganilib, ularning O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida qo'llanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologik sanoat zonalari iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, hududiy rivojlanishni ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: texnologik sanoat zonalari, texnopark, innovatsiya, iqtisodiy o'sish, investitsiyalar, bandlik, sanoat siyosati, infratuzilma.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the economic and social significance of establishing modern technological industrial zones in the economy. The main objective of the study is to identify the role of technological industrial zones in accelerating economic growth, attracting investment, increasing employment, and fostering innovation. Based on the experience of developed countries, the effectiveness of technoparks and industrial zones is examined, and their applicability in the context of Uzbekistan's economy is analyzed. The results of the study indicate that modern technological industrial zones play a crucial role in enhancing economic competitiveness, ensuring regional development, and improving social welfare.

Key words: technological industrial zones, technopark, innovation, economic growth, investments, employment, industrial policy, infrastructure.

Аннотация. В данной статье комплексно анализируется экономическое и социальное значение создания современных технологических промышленных зон в экономике. Основной целью исследования является определение роли технологических промышленных зон в ускорении экономического роста, привлечении инвестиций, повышении занятости и развитии инновационной деятельности. На основе опыта развитых стран изучена эффективность технопарков и промышленных зон, а также проанализированы возможности их применения в условиях экономики Узбекистана. Результаты исследования показывают, что современные технологические промышленные зоны играют важную роль в повышении конкурентоспособности экономики, обеспечении регионального развития и улучшении социального благосостояния.

Ключевые слова: технологические промышленные зоны, технопарк, инновации, экономический рост, инвестиции, занятость, промышленная политика, инфраструктура.

KIRISH

Hozirgi kunda dunyo iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, texnologiyalar rivoji va raqamli iqtisodiyotning kengayishi ishlab chiqarish tizimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli davlatlar iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun yangi yondashuvlarni izlamogda. Ana shunday zamonaviy yondashuvlardan biri bu texnologik sanoat zonalari tashkil etish hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida sanoatni innovatsion asosda rivojlantirish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni kengaytirish hamda global bozorga integratsiyalashuv jarayonlari har bir mamlakat uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, texnologik sanoat zonalari iqtisodiy rivojlanishning muhim instrumenti sifatida shakllanmoqda.

Sanoat zonalari deganda, odatda, maxsus hudud tushuniladi, unda korxonalar uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Jumladan, soliq imtiyozlari, rivojlangan infratuzilma, kommunikatsiya tarmoqlari va logistika xizmatlari



mavjud bo'ladi. Texnologik sanoat zonalarini esa oddiy sanoat hududlaridan farqli ravishda innovatsiyalar va yuqori texnologiyalarga asoslangan bo'lib, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani ta'minlaydi. Global tajriba shuni ko'rsatadiki, texnoparklar va sanoat zonalarini orqali mamlakatlar iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, eksport salohiyatini oshiradi va yangi ish o'rinlarini yaratadi. Xususan, rivojlangan davlatlarda bunday zonalar iqtisodiyotning muhim "harakatlantiruvchi kuchi"ga aylangan.

Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda aynan shunday zonalar iqtisodiy rivojlanishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ular nafaqat ishlab chiqarishni rivojlantiradi, balki ilm-fan, texnologiya va biznesni yagona tizimga birlashtiradi.

O'zbekiston ham ushbu yo'nalishda faol siyosat olib bormoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda zamonaviy sanoat zonalarini tashkil etish orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish va hududiy rivojlanishni ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy texnologik sanoat zonalarini rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda xalqaro tashkilotlar va iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilmoqda. Xususan, Jahon banki tadqiqotlarida sanoat zonalarini iqtisodiy o'sishni ta'minlash, investitsiyalarni jalb qilish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim vosita sifatida baholanadi. Ushbu tashkilot hisobotlariga ko'ra, sanoat zonalarini korxonalar uchun zarur infratuzilmani ta'minlab, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi [1]. Shuningdek, UNIDO tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda zamonaviy sanoat zonalarini faqat iqtisodiy samaradorlik bilan cheklanib qolmasdan, balki ijtimoiy va ekologik jihatlarni ham o'z ichiga olishi ta'kidlanadi. Ayniqsa, "eco-industrial parks" konsepsiyasi orqali resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkinligi ko'rsatib o'tilgan [2]. OECD tadqiqotlarida esa sanoat zonalarini hududiy rivojlanishni jadallashtiruvchi muhim omil sifatida baholanadi. Ushbu tashkilot ma'lumotlariga ko'ra, sanoat zonalarini infratuzilmani yaxshilash, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash hamda hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi [3].

Ilmiy adabiyotlarda, xususan, M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan klaster nazariyasiga ko'ra, bir hududda joylashgan korxonalar o'rtasidagi hamkorlik innovatsiyalarni tezlashtiradi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi [4]. Bu esa texnologik sanoat zonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Xorijiy tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, AQShdagi Silicon Valley, Xitoydagi Shenzhen sanoat zonasi va Janubiy Koreyadagi texnoparklar yuqori texnologiyalar asosida rivojlanib, milliy iqtisodiyotning yetakchi segmentiga aylangan [5]. Ushbu hududlarda ilm-fan, ishlab chiqarish va biznes o'rtasida kuchli integratsiya mavjud bo'lib, bu innovatsion rivojlanishni ta'minlaydi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham sanoat va texnologik rivojlanish masalalari keng o'rganilgan. Xususan, A. Ortikovning "Sanoat iqtisodiyoti" nomli darsligida sanoatning milliy iqtisodiyotdagi o'rni, uni boshqarish va rivojlantirish mexanizmlari ilmiy asosda yoritilgan. Muallifning ta'kidlashicha, sanoatda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va innovatsiyalarni rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi [6]. Shuningdek, F. Asimovning ilmiy ishlarida sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Unda innovatsion boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va ularning amaliyotdagi ahamiyati yoritilgan bo'lib, innovatsion faoliyat korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi [7]. Bundan tashqari, ayrim xorijiy tadqiqotlarda sanoatni texnologik modernizatsiya qilish jarayonida institutsional sharoitlar va infratuzilmaning ahamiyati alohida ko'rsatib o'tilgan. Xususan, G.M. Galeeva va R.I. Zinurovalarning tadqiqotlarida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solish mexanizmlarining samaradorligi muhim omil sifatida baholanadi [8]. Shuningdek, Myroslava va Shamilevalarning ilmiy ishlarida sanoat hududlarining rivojlanish omillari statistik tahlil asosida o'rganilib, innovatsion rivojlanishning hududiy iqtisodiyotga ta'siri asoslab berilgan [9].

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologik sanoat zonalarini iqtisodiy rivojlanishning muhim omili bo'lib, ular orqali investitsiyalarni jalb qilish, innovatsiyalarni rivojlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etishning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda bir qator ilmiy tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi texnologik sanoat zonalarining iqtisodiy o'sish, investitsiyalarni jalb qilish, bandlikni oshirish va innovatsion rivojlanishdagi rolini tahlil qilish hamda xorijiy tajribalar asosida ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot metodologiyasi asosan nazariy va amaliy yondashuvlarga asoslanadi. Nazariy yondashuv doirasida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va mahalliy tadqiqotlar o'rganildi. Xususan, sanoat zonalarini rivojlanishi bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilindi.



Tizimli yondashuv orqali texnologik sanoat zonalarini yagona iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqildi. Ushbu yondashuv sanoat zonalarining infratuzilma, investitsiya muhiti, ishlab chiqarish jarayonlari va innovatsion faoliyat bilan o'zaro bog'liqligini kompleks tahlil qilish imkonini berdi.

Solishtirma tahlil usuli yordamida rivojlangan mamlakatlardagi sanoat zonalarini faoliyati O'zbekiston tajribasi bilan taqqoslandi. Bu orqali samarali mexanizmlar va mavjud farqlar aniqlanib, ularni milliy iqtisodiyotga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

Statistik tahlil usuli asosida sanoat zonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlarga, jumladan, ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar va bandlik darajasiga ta'siri umumlashtirildi. Ushbu usul orqali ularning iqtisodiy samaradorligi baholandi.

Shuningdek, "case study" usuli yordamida ayrim aniq sanoat zonalarini, xususan, O'zbekistondagi Navoi, Angren va Jizzax sanoat zonalarini faoliyati misol sifatida o'rganildi. Bu esa nazariy bilimlarni amaliy misollar bilan mustahkamlash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida umumlashtirish va tahlil qilish usullari orqali olingan natijalar tizimlashtirildi hamda ularning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati aniqlashtirildi. Umuman olganda, qo'llanilgan metodologiya zamonaviy texnologik sanoat zonalarining rivojlanish xususiyatlarini chuqur o'rganish va ularning iqtisodiyotdagi rolini har tomonlama baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish iqtisodiyotga ko'p qirrali va uzoq muddatli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ularning ahamiyati nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarda, balki ijtimoiy rivojlanishda ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Birinchidan, sanoat zonalarini iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki ushbu hududlarda ishlab chiqarish jarayonlari markazlashgan holda tashkil etiladi, bu esa resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Natijada ishlab chiqarish hajmi ortadi va yalpi ichki mahsulot o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro tajribaga ko'ra, sanoat zonalarini faol rivojlangan hududlarda sanoat ishlab chiqarishi umumiy iqtisodiy o'sishning muhim qismini tashkil etadi.

Ikkinchidan, texnologik sanoat zonalarini investitsiyalarni jalb qilishda juda muhim rol o'ynaydi. Bunday hududlarda yaratilgan soliq va bojxona imtiyozlari, shuningdek, tayyor infratuzilma investorlar uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada xorijiy investitsiyalar oqimi oshadi. Masalan, ayrim rivojlanayotgan davlatlarda sanoat zonalarini orqali jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar umumiy investitsiyalar hajmining sezilarli qismini tashkil etadi.

Uchinchidan, bandlik darajasini oshirish sanoat zonalarining eng muhim ijtimoiy natijalaridan biri hisoblanadi. Yangi korxonalar tashkil etilishi natijasida ko'plab ish o'rinlari yaratiladi. Ayniqsa, yoshlar va kasb-hunar egallagan mutaxassislar uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, aholi daromadlarining oshishiga va ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga olib keladi.

To'rtinchidan, innovatsion rivojlanish tezlashadi. Texnologik sanoat zonalarining asosiy farqli jihati shundaki, ular yuqori texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlarga asoslanadi. Bu yerda ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya kuchayadi, natijada yangi mahsulotlar va texnologiyalar tezroq joriy etiladi. Bu esa milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, hududiy rivojlanish masalasi ham ijobiy hal etiladi. Sanoat zonalarini, odatda, iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan hududlarda tashkil etiladi. Natijada infratuzilma rivojlanadi, transport va kommunikatsiya tizimlari yaxshilanadi. Bu esa hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutni kamaytirishga yordam beradi.

O'zbekiston misolida ham so'nggi yillarda sanoat zonalarining rivojlanishi ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. Xususan, Navoi, Angren va Jizzax sanoat zonalarida yangi ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilib, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortib bormoqda. Shu bilan birga, ushbu hududlarda minglab yangi ish o'rinlari yaratilgani kuzatilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologik sanoat zonalarini iqtisodiy o'sish, investitsiyalarni jalb qilish, bandlikni oshirish va innovatsion rivojlanishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat zonalarini ham ijobiy, ham salbiy ta'sirga ega. Ular iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishga hissa qo'shishi bilan birga, salbiy ekologik va ijtimoiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin, jumladan: iqlim o'zgarishi, ifloslanish, tabiiy resurslarning kamayishi, mehnat muammolari va mahalliy jamoalarga salbiy ta'sir. Shunday qilib, salbiy natijalarni yumshatish va iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik yutuqlarni optimallashtirish uchun nozik rejalashtirish va samarali boshqaruv zarur.



So'nggi o'n yilliklarda sanoat parklariga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi. Firmalarning belgilangan joylarda birlashishi, masalan, aylanma iqtisodiyot amaliyotlarini qo'llash orqali hamkorlik va samaradorlikning potensial yutuqlarini taqdim etadi. Rivojlanayotgan va rivojlangan iqtisodiyotlar sanoat ishlab chiqarishini ko'paytirishga intilayotgan bir paytda, iqtisodiy o'sishni ekologik va ijtimoiy maqsadlar bilan muvozanatlash zarurati mavjud. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish iqtisodiyotning rivojlanishida va ijtimoiy farovonlikni oshirishda strategik ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bunday sanoat zonolari:

- Yirik va kichik bizneslarni jalb qilish, investitsiyalarni oshirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.
- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish orqali raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.
- Mahalliy jamoalar uchun malaka oshirish, trening va ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish orqali ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, bunday loyihalarni amalga oshirish jarayonida yuqori boshlang'ich xarajatlar, infratuzilma va boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish zaruriyati kabi muammolar ham mavjudligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Davlat va siyosat sohasida: zamonaviy texnologik sanoat zonalarini rivojlantirish uchun infratuzilma, soliq va moliyaviy rag'batlarni takomillashtirish, shuningdek, investitsiya muhitini yanada qulaylashtirish.
2. Biznes subyektlari uchun: ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlik qilish, zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish va malakali kadrlarni tayyorlash orqali samaradorlikni oshirish.
3. Ijtimoiy sohada: mahalliy aholini ish bilan ta'minlash, malaka oshirish kurslari va treninglar tashkil etish, shuningdek, jamoaviy loyihalarda faol ishtirok etishni rag'batlantirish.
4. Kelgusidagi tadqiqotlar uchun: turli tarmoqlar kesimida texnologik sanoat zonalarining iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini chuqurroq o'rganish, raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan boshqaruv modellari va amaliy samaradorlikni baholashga qaratilgan ilmiy izlanishlarni kengaytirish.

Mazkur chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish iqtisodiy barqarorlikni oshirish, innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish va ijtimoiy farovonlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6102462>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-169-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6633676>
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Sanoat sohasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/>
4. O'rtiqov, A. (2014). Sanoat iqtisodiyoti: o'quv qo'llanma. Toshkent: Unilibriy. <https://unilibriy.uz/literature/826609>
5. Xotamov, I. S., & Madrahimova, G. R. (2022). Sanoat iqtisodiyoti: darslik. T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. ISBN 978-9943-8530-6-5
6. Galeeva, G. M., & Zinurova, R. I. (2016). Technological modernization of industry. In Social Sciences and Interdisciplinary Behavior (1st ed.). CRC Press. <https://www.taylorfrancis.com/chapters/edit/10.1201/9781315375182-49/technological-modernization-industry-galeeva-zinurova.3>
7. Soldak, M. O., & Shamileva, L. L. (2018). Factors of the industrial regions' development: Opportunities for modernization on an innovative basis. Ekonomika promyshlennosti. <https://cyberleninka.ru/article/n/factors-of-the-industrial-regions-development-opportunities-for-modernization-on-an-innovative-basis>
8. Zhang, J. (2025). The development strategy and practice path of Chinese industrial modernization from the perspective of technology. China Political Economy, 8(1), 45–62. <https://doi.org/10.1108/CPE-06-2025-051>
9. Babacan, A., Polat, M. A., & Kizilkaya, O. (2023). Green economy in sustainable development: An analysis for OECD countries. Istanbul Journal of Economics, 73(1), 231–260. <https://doi.org/10.26650/ISTJECON20221191901>
10. Fetai, B., Qorraj, E., & Gara, A. (2025). Green economy and economic growth: An empirical analysis using panel data. European Journal of Economics, Finance and Business Development, 3(3). <https://doi.org/10.XXX/EA.2025.3.09>
11. Isroilov, I. (2025). Yashil iqtisodiyot kontekstida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash: Xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti. Green Economy and Development. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17577355>
12. Khudoyberdiyeva, O., & Yakhshikulova, M. (2025). The role of renewable energy in the green economy. Green Economy and Development. <https://doi.org/10.5281/zenodo.16745162>
13. Jumaniyazov, N. O., Raxmatullayev, U. U., Xaitbayev, J. O., & Umarov, M. Y. (2025). Opportunities and challenges of transitioning to a green economy in regional economic development. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning, 6(4), 8. <https://doi.org/10.47134/emergent.v4i2.68>
14. Mahmudova, Y. (2025). Strategiya perekhoda Uzbekistana k "zelyonoy ekonomike": problemy i perspektivy. Green Economy and Development. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17380558>
15. Mirzayev, B. A. (2025). O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish istiqbollari: Muammolar va yechimlar. Green Economy and Development. https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss10/a4



16. Mohammad Razib Hossain, Devi Prasad Dash, Das, N., Ullah, E., & Md. Emran Hossain. (2024). Green energy transition in OECD region through the lens of economic complexity and environmental technology: A method of moments quantile regression perspective. *Applied Energy*, 365, 123235. <https://doi.org/10.1016/j.apenergy.2024.123235>
17. Nuraliyeva, K. (2025). Uglerodsiz energiyaga o'tishda O'zbekistonning yashil strategiya yo'l xaritasining integratsiyasi va ta'siri. *Green Economy and Development*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15624225>
18. Samadova, J., & Xolliyev, Sh. (2025). Yashil iqtisodiyotga o'tishning ahamiyati va O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi. *Green Economy and Development*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.16744755>
19. Xamrakulova, S. (2025). Principy perekhoda k "zelyonoy ekonomike" v Respublike Uzbekistan. *Green Economy and Development*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.16104250>
20. Hamraeva, S. (2025). Perspektivy razvitiya "zelyonoy ekonomiki" v Respublike Uzbekistan. *Green Economy and Development*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.16693759>
21. Renewable Energy Transition and the Paris Agreement. (2024). *Energies*, 17(17), 4238. <https://doi.org/10.3390/en17174238>
22. Dumas, M., La Rosa, M., Mendling, J., & Reijers, H. A. (2018). *Fundamentals of Business Process Management*. Springer.
23. Harmon, P. (2019). *Business Process Change: A Business Process Management Guide for Managers and Process Professionals*. Morgan Kaufmann.
24. Weske, M. (2019). *Business Process Management: Concepts, Languages, Architectures*. Springer.
25. Object Management Group (OMG). (2021). *Business Process Model and Notation (BPMN) Version 2.0.2*.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>